

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

UZOQ SHARQ VA JANUBIY OSIYO TILLARI FAKULTETI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

MAVZU: YAPON TILIDA KANSAI SHEVASI

VA LEKSIKASI

Bajardi: 5220100 – Filologiya va tillarni o‘qitish
ta’lim yo‘nalishi bitiruvchi kurs talabasi
Uzoqova D.G‘ _____

Ilmiy maslahatchi: dots. Alimova.X_____

Ilmiy rahbar: “Yapon filologiyasi” kafedrası
dotsenti Sugano Reiko_____

TOSHKENT-2014

Bitiruv malakaviy ishi himoyasiga tavsiya etildi

“Uzoq Sharq va Janubiy Osiyo tillari”

fakulteti dekani

f.f.n S.A. Nosirova

_____ 20__ yil
“ ” _____

“Yapon filologiyasi”

kafedrası mudiri v.b

E.O. Matchonov

_____ 20__ yil
“ ” _____

MUNDARIJA

KIRISH.....	4
I BOB. YAPON TILIDA “DIALEKT” VA “SHEVA” TUSHUNCHALARI HAQIDA UMUMIY MA’LUMOT.....	9
1.1. Yapon tilida “dialekt” va “sheva” tushunchasi.....	9
1.2. Muayyan til va dialekt (sheva)ning farqli jihatlari	11
1.3. Yapon tilida dialekt hamda shevaning “umumxalq tili” va “standart til” bilan farqli xususiyatlari.....	12
1.4. Dialekt va shevalarni guruhlash (方言区画論)	14
Birinchi bob yuzasidan xulosalar	16
II BOB. “KANSAI SHEVASI” VA “MUMTOZ YAPON TILI”NING O‘ZARO O‘XSHASH VA FARQLI JIHATLARI.....	18
2.1. Kansai shevasi va uning o‘ziga xos xususiyatlari.....	18
Grammatik xususiyatlari 「文法」	18
2.2. “Mumtoz yapon tili” va uning o‘ziga xos xususiyatlari	21
2.3. “Kansai shevasi” va “Mumtoz yapon tili” ning o‘zaro o‘xshash va farqli jihatlari.....	24
2.4. “Adabiy til” (“standart til” va “umumxalq til”)ga o‘tgan“Kansai” shevasi ..	27
Ikkinchi bob yuzasidan xulosalar.....	28
III BOB. YAPON TILIDA KONTAKT JARAYONI ORQALI VUJUDGA KELAYOTGAN “YANGI SHEVA”NING SHAKLLANISH SABABLARI	33
3.1. Yapon tilida kontakt jarayoni orqali vujudga kelayotgan “Yangi sheva” (ネ オ方言)	33
3.2. Mumtoz yapon tilining Kansai shevasida saqlanib qolinishining o‘ziga xos sabablari.....	36
3.3. “Kansai shevasi” va “umumxalq tili”ning o‘zaro kontakti natijasida vujudga kelayotgan “Yangi sheva”ning paydo bo‘lish sabablari	39
Uchinchi bob yuzasidan xulosalar	40
XULOSA.....	41
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati	44
Ilovalar.....	47

KIRISH

*Ilm-u fan sohasidagi harakatlarimiz
ham, ilmiy ishlarimiz va yutuqlarimiz
ham dunyodagi eng ilg‘or mezonlar
bilan o‘lchanishi lozim.*

I.A.Karimov

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, ijtimoiy hayotimizning barcha jabhalarida katta o‘zgarishlar yuz berdi. Prezidentimiz I.A.Karimovning “Inson salohiyati eng faol, eng bunyodkor omil bo‘lib, u mamlakatning islohotlar va tub o‘zgarishlar yo‘lidan tinimsiz ilgarilab borishini ta‘minlab beradi¹” degan fikrlari ilm-fan rivoji uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Bu borada tilshunoslik sohasida olib borilayotgan ishlar ham albatta, nazarda tutilgan. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng mamlakatimiz dunyo mamlakatlari tomonidan tan olindi va mustahkam diplomatik aloqalar o‘rnatildi. Diplomatik hamkorlikni yanada mustahkamlash uchun albatta, turli xil mamlakat tillarini o‘qitish va yetuk malakali kadrlarni tayyorlash dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Tilni faqatgina grammatik, leksik jihatdan emas, balki ilmiy jihatdan ham o‘rganish, albatta, mamlakatning ilmiy salohiyatini rivojlantirishda o‘z hissasini qo‘shadi.

Ijtimoiy hodisa sifatida til doimiy harakatda bo‘lib, faollashib boradi. Til – nafaqat tafakkur mahsuli, ma’lum bir fikrni ifoda etuvchi vosita, balki butun bir olam, koinotning tarkibi hamda mazmun-mohiyatini inson ongida aks ettirishga xizmat qiladi. Jamiyatda yuz berayotgan o‘zgarishlar tilda, albatta, o‘z ifodasini topadi.

¹ Karimov.I.A. Inson baxt uchun tug‘iladi/O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hikmatli so‘zlaridan.-T.: O‘zbekiston, 2001.

Til, jamiyat va madaniyatning o‘zaro munosabati masalasi tilshunoslik fanida juda kam o‘rganilgan, masalani atroflicha o‘rganish zamonaviy tilshunoslikning juda muhim muammolaridan biri sanaladi. Zero, taniqli nemis tilshunosi va faylasufi Vilgelm Fon Gumbolt tilni “xalq – ma’naviy kuch-qudratining ifodasi”, “xalq tafakkuri va hissiyotini ifodalovchi muhim vositadir”, deb ta’riflagan edi.² Shu o‘rinda tildagi shevalarning o‘rni beqiyosdir.

Odatda tillar o‘z taraqqiyoti jarayonida ichki va tashqi omillarga tayanadi. Bunda birinchisi, ya’ni ichki omil ustuvor xususiyatga ega. Mazkur BMIda ichki omil – sheva va dialektlarning o‘ziga xos o‘zgarish mexanizmlarini yapon tilidagi “Kansai shevasi” misolida olib boriladi.

Yapon tili o‘zining murakkab tuzilishga ega ekanligi bilan ham ahamiyatli. Xususan, yapon tilida ikki xil so‘z shakllari mavjud: barchaga tushunarli bo‘lgan “adabiy til” o‘rnini bosuvchi “standart til” (標準語) hamda ma’lum bir hududdagina iste’molda bo‘lgan dialektlardir. Yapon tilida mavjud bo‘lgan dialekt hamda shevalar o‘ziga xos xususiyatga ega. Ya’ni yapon tilidagi dialekt va shevalar o‘zgarishga uchragan va hozirgi kunda ham shevadagi so‘zlar yoshlar nutqida “yangi sheva” (ネオ方言) shaklida paydo bo‘lmoqda.

Aynan Kansai shevasida bu o‘zgarishlarni ko‘proq ko‘rish mumkin. Yuqoridagi fikrning isboti sifatida paydo bo‘lgan “Yangi sheva” 「ネオ方言」 ning shakllanishini misol qilib keltirish mumkin. “Yangi sheva” Kansai shevasi 「関西弁」 va umumiy til (共通語—“kyoutsugo”)ning bir vaqtda ishlatilishi hamda o‘zaro ta’siri natijasida shakllangan. Ya’ni Kansai shevasi+umumiy til= “Yangi sheva”si shaklida shakllanib kelmoqda.

Kansai shevasining yana bir o‘ziga xos xususiyati o‘rta asrlar yapon mumtoz tiliga yaqinligi hisoblanadi. Bu o‘xshashliklar so‘zlarning grammatik qurilishida, ayniqsa fe’l shakllari qo‘shimchalarida ko‘rish mumkin. Shu jihatdan “Kansai sheva”si an’anaviy yapon tili xususiyatlarini o‘zida saqlagan (伝統的な方言) sheva tarzida baholashgan. Aynan shuni ta’kidlab o‘tish

² Гумбольдт В.фон. Язык и философия культуры. - М.: Наука, 1985.

joizki, turli xalqlar urf-odati, madaniyati shu xalqning dialektlari va shevalari bilan chambarchas bog‘liq hisoblanadi. Til o‘rganish jarayonida faqatgina shu tilning grammatik, leksik qurilishini o‘rganish bilan ikki xalq orasida madaniyat aloqalarini yanada mustahkamlash uchun yetarli emas. Buning uchun albatta, shu xalq bilan bog‘liq madaniyat, uning mentaliteti, adabiyotini o‘rganish ham muhim masala hisoblanadi. Kansai shevasi o‘zining mumtoz yapon tiliga yaqinligi hamda yapon tilidagi shox asarlar aynan o‘rta asrlar mumtoz yapon tilida yozilganligi jihatidan bu shevani o‘rganishning dolzarb va muhim tomoni hisoblanadi.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Yapon tilshunosligida Kansai shevasining fonetik, grammatik, leksik jihatdan tahlili, kansai shevasi va “umumiy til” (共通語) ning o‘zaro ta’siri natijasida paydo bo‘layotgan “yangi sheva” (ネオ方言) ning leksik, fonetik, grammatik tahliliga oid ko‘plab tadqiqodlar olib borilgan. Ammo Kansai shevasida mumtoz yapon tilining haligacha saqlanib qolishi, uning “umumxalq tili” (共通語) yoki “standart til”da (標準語) ham hozirgi kunda iste’molda ekanligi hamda oraliq sheva deb nom olgan “yangi sheva”ning paydo bo‘lish sabablari hali to‘liq o‘rganilmagan.

BMI ning maqsad va vazifalari. Ushbu BMI dan ko‘zlangan maqsad yapon tilining Kansai shevasida so‘z shakllari hamda ularning o‘zgarishga uchrashida “umumxalq tili” (“kyoutsugo”) yoki “standart til” (“hyoujyungo”) ta’siri hamda qadimgi yapon tili va Kansai shevasi orasidagi o‘xshash va farqli tomonlarni aniqlash, Kansai shevasida o‘zgarishlar natijasida paydo bo‘lgan so‘zlarni tahlil qilish, ushbu o‘zgarishning mexanizmlari hamda sabablarini aniqlashdan iborat hisoblanadi. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, BMI ga qo‘yiladigan vazifalar quyidagilar hisolanadi:

- Yapon tilida “dialekt” hamda “sheva” tushunchalarini aniqlash va shevalarni guruhlash haqidagi nazariyalarni tahlil etish;

- Kansai shevasining o‘ziga xos xususiyatlari leksik, grammatik, fonetik xususiyatlarini aniqlash hamda tahlil etish;
- Mumtoz yapon tilining leksik, grammatik, fonetik xususiyatlarini aniqlash;
- Kansai shevasi va mumtoz yapon tilining o‘xshash jihatlarini aniqlash;
- Yapon tilidagi ichki kontakt jarayoni natijasida (方言接触) vujudga kelayotgan “Yangi sheva”ning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash;
- Mumtoz yapon tilining (O‘rta asrlar VII-XII asrlar tili) hozirgi kungacha shevalarda saqlanib qolishining asosiy omillarini aniqlash.

BMIning tadqiqod manbalari. BMIning asosiy manbasi sifatida hozirgi zamon yetuk o‘zbek va yapon tilshunos olimlarining yapon tili grammatikasiga doir asarlari, o‘quv qo‘llanmalari, bir qancha ilmiy ishlari hamda muallifning shaxsiy kuzatuvlari xizmat qildi. Ushbu tadqiqodni olib borishda uch yo‘nalishdagi adabiyotlardan, ya’ni o‘zbek va yapon tilshunoslarining hamda rus yaponshunoslarining dialektologiya, xususan, dialektlar grammatikasiga doir maxsus adabiyotlardan foydalanildi. Ayrim hollarda esa badiiy adabiyot namunalariga murojaat qilindi. Tadqiqod manbalari sifatida quyidagi mualliflarning ilmiy kitoblari hamda badiiy asarlardan foydalanildi:

1. 大西拓一郎(2008・2012)「現代方言の世界」朝倉書店
2. 古瀬順一(2001)「国語学概説」双文社出版
3. 柳町敬直(1994)「竹取物語・伊勢物語・大和物語・平中物語」
図書印刷株式会社
4. 田辺聖子(2009)「ほとけの心は妻ごころ」角川書店。

BMIning metodologik va nazariy asoslari. Mazkur bitiruv malakaviy ishida Onishitaku Ichiro³, Furuse Jyunichi⁴, Shimizu Fumio, Matsumura

³ 大西拓一郎「現代方言の世界」朝倉書店 2008・2012

Akira, Mashimo Saburo⁵, Asakura Kunizo⁶, Matsumoto Isao⁷ va boshqalarning ilmiy ishlariga tayanildi.

Tadqiqod metodi: Bitiruv malakaviy ishida yapon tilidagi shevalarni guruhlarga ajratishda tilshunoslikdagi komponent va qiyosiy tahlil metodidan foydalanildi.

BMIning ilmiy va amaliy ahamiyati. Mazkur bitiruv malakaviy ishining mavzusi zamonaviy o‘zbek yaponshunosligida hali o‘rganilmagan sohalardan hisoblanadi. Ushbu BMIning natijalari o‘zbekistonda yapon tilini o‘rganayotgan talabalar va izlanuvchilar uchun o‘quv va tadqiqod manbai bo‘la oladi. Shuningdek, tadqiqod jarayonida yig‘ilgan va amaliy tahlil etilgan Kansai dialekti xususiyatlarining tahlili hamda ilmiy ish natijalari tilshunoslik uchun ham ahamiyatlidir. Mazkur BMIda qo‘llanilgan barcha misollar badiiy adabiyot asarlari, xususan, Kansai dialektida yozilgan asarlar muallifi Tanabe Seikoning “Farishta qalbli ayol” hamda yapon mumtoz adabiyotining noyob durdonasi bo‘lgan “Taketori-monogatari”(“Bambuk kesuvchi chol qissasi”) asarlaridan parchalar olib tahlilda foydalanildi.

BMIning tarkibiy tuzilishi. Ushbu BMI kirish, asosiy qismning to‘rt bobi, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Mazkur BMIda yapon tilida “sheva” va “dialekt” tushunchalari haqida ma’lumot, “Kansai shevasi” va “Mumtoz yapon tili”ning o‘zaro o‘xshash va farqli jihatlari tahlil qilindi. Shuningdek, yapon tilida kontakt jarayoni orqali vujudga kelayotgan “Yangi sheva”ning shakllanish sabablari ko‘rib chiqildi.

⁴ 古瀬順一「国語学概説」双文社出版 2001

⁵ Shimizu Fumio, Matsumura Akira, Mashimo Saburoning “Mumtoz yapon tili grammatikasi” (清水文雄・松村明・真下三郎「古典文法」)

⁶ 朝倉邦造「日本語文章・文体・表現辞典」株式会社朝倉書店。(2011・2012) ISBN 978-4-254-51037-9C3581

⁷ 松本功「ガイドブック方言研究」株式会社ひつじ書房。

I BOB. YAPON TILIDA “DIALEKT” VA “SHEVA” TUSHUNCHALARI HAQIDA UMUMIY MA’LUMOT

1.1. Yapon tilida “dialekt” va “sheva” tushunchasi

Sheva – biror til doirasidagi xalq jonli tilining o‘ziga xos fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarga ega bo‘lgan eng kichik qismi hisoblanadi.

Dialekt – tilshunoslikka doir adabiyotlarda ko‘pincha lahja ma’nosida, ba’zan sheva ma’nosida ham qo‘llanadi. Olimlar tomonidan yaratilgan dialektologiyaga oid ilmiy ishlarda sheva, dialekt va lahja atamalarini farqlamaslik, aralashtirib qo‘llash hollari ham uchraydi. Dialekt – xalqaro atama bo‘lib, umumlingvistik “dialekt” ma’nosida ishlatish lozim. (**dialekt** so‘zi sheva va lahja tushunchalarini birgalikda ifodalaydi)⁸.

Yapon tilida yuqoridagi atamalarga teng keladigan 「弁 - ben」 va 「方言 - hougen」 tushunchalari mavjud bo‘lib, yapon tilshunosligida ham ushbu tushunchalarni farqlamaslik, ajratmaslik holatlari kuzatiladi.

Yapon tilida so‘zlar, grammatika, talaffuzlarning ma’lum bir hududlarga ko‘ra turli-tuman shakllari mavjud. Masalan, “umumiy til” (“kyoutsugo”)da “nega” ma’nosidagi 「なぜなのか - (nazenanoka)」 so‘zi Kansaida 「ナンデヤネン (nandeyanen)」, “mazali” ma’nosidagi 「おいしい - oishii」 Kyushyuda 「ウマカ - umaka」, “xayrli kech” ma’nosidagi 「こんばんは - konbanwa」 so‘zi Toxokuda 「オバンデス - obandesu」⁹ kabi shaklda ishlatiladi. Bunday hududlarga ko‘ra farqlanuvchi so‘zlar “dialekt” deb nomlanadi.

“Dialekt” tushunchasi ma’lum bir hududning xususiyatlarini o‘zida jamlab, “adabiy til” va “umumiy til”dan farqlanuvchi so‘zlarni anglatadi. Furuse Jyunichi (2001) “dialekt” tushunchasiga quyidagicha ta’rif beradi:

⁸ To‘ychiyev B., Xasanov B. O‘zbek dialektologiyasi – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.

⁹ 大西拓一郎 (2008) 「現代方言の世界」第一章。

1. “Dialekt” juda keng tushuncha hisoblanadi. “Dialekt” tushunchasi keng ma’nodagi Nagasaki shevasidagi “batten” 「バッテン」, Osaka shevasidagi “egennai” 「エゲッナイ」 kabi soʻzlarni “dialekt” yohud shevadagi soʻzlar deb ataladi. Boshqa hududlar bilan keskin farq qiladigan bunday soʻzlar har doim ham “dialekt” deb atash toʻgʻri boʻlavermaydi. “Dialekt” soʻzi yanada keng tushuncha hisoblanib, maʼlum bir hududning umumiy tilining bir koʻrinishiga nisbatan ishlatiladigan tushunchadir. Umumiy tilning bir koʻrinishi boʻlgani uchun fonetik, grammatik, leksik jihatdan umumiy til barcha jihatlarini qamrab olgan til sistemasiga “dialekt” deb ataladi.¹⁰
2. “Dialekt” - maʼlum bir hududda isteʼmolda boʻlgan umumiy til sistemasining bir koʻrinishi.

Asakura Kunizo (2011/2012) esa “sheva” tushunchasiga maʼlum bir tilda mavjud boʻlgan hududiy til shakllari mavjud - bu “hududiy sheva” deb nomlanadi. Bundan tashqari jamiyatdagi til shakllari hioblanmish “ijtimoiy sheva”lar ham mavjud. “Sheva”ning ham “Til”ning ham til sistemasi va xususiyatlari bir xil. Tilda turli xil til shakllari mavjud. Maʼlum bir tildagi “adabiy til” yoki “umumiy til”ga nisbatan hududiy oʻzgarish boʻlib, siyosiy, madaniy omillarning tashqi lingvistik faktorlariga koʻra nomlangan holatda “sheva” deb atash toʻgʻriroq.

Mazkur BMIda Furuse Jyunichi hamda Asakura Kunizolar fikriga tayangan holda “dialekt” tushunchasi maʼlum bir hududdagi alohida shakllangan soʻzlar “dialekt” deb atalib, “adabiy til” va “umumiy til” bilan farqlanib turuvchi til shakli hisoblanadi. Yana boshqacha qilib aytganda dialekt – shevalar yigʻindisi, Sheva esa maʼlum bir hududgagina xos boʻlgan soʻzlarni anglatadi degan xulosaga kelindi.

¹⁰古瀬順一（2001）「国語学概説」 p235－236

Xulosa qilib aytganda “dialekt” hamda “sheva” tushunchalari orasida farq mavjud. Furuse Jyunichi ta’kidlaganidek, “dialekt” tushunchasi keng ma’noda qo’llaniladi. Masalan, yapon dialektologiyasida yapon tilini asosan uchta kata dialektlar guruhiga: Kyushyu, G’arbiy va Sharqiy Yaponiya guruhlariga. (Tojyou Misao (1954)). Ular yana o‘z ichida guruhlarga, ya’ni dialektlarga bo‘linadi. Masalan, Sharqiy Yaponiya guruhiga Xokkaydo, Tohoku, Kanto, Tokaitoyama, Hachijyoshima dialektlari kiradi. Sheva tushunchasi esa dialektga nisbatan tor tushuncha bo‘lib, yapon tilida adabiy til hisoblanmish “standart til” yoki unga yaqin bo‘lgan “umumiy til”ga nisbatan hududiy o‘zgarish hisoblanadi. Sheva tushunchasini Asakura Kunizo ta’rifidan kelib chiqib, uni “hududiy til” deb nomlash tog‘riroq bo‘ladi. Bunday hududlarga misol qilib Kinki dialektiga kiruvchi Kansai hududi shevasini misol qilib olish mumkin.

1.2. Muayyan til va dialekt (sheva)ning farqli jihatlari

Furuse Jyunichi (2001) ta’rif berganidek, umumiy tilning bir ko‘rinishi bo‘lgani uchun fonetik, grammatik, leksik jihatdan umumiy til barcha jihatlarni qamrab olgan til sistemasiga “dialekt” deb ataladi. Shu o‘rinda bir savol tug‘iladi: agar dialekt tilning barcha xususiyatlarini (fonetik, grammatik, leksik) qamrab oladigan bo‘lsa, dialect yoki sheva va muayyan bir til o‘rtasida qanday farq mavjud? Onishitaku Ichiro bu haqida quyidagicha o‘z ta’rifini berib o‘tadi:

Onishitaku Ichiro (2012) “Dialekt” tushunchasi o‘o‘til (masalan, o‘zbek tili, yapon tili) ning ichki bo‘linishi hisoblanadi. Ingliz tili, xitoy tili, fransuz tili, ispan tili, yapon tili kabi dunyoda minglab tillar bo‘lib, bular har biri ishlatiladigan mamlakat nomining toji sifatida atab keladi. Yapon tili dialekti deganda shu tildagi ichki bo‘linish bo‘lib, hududlarga ko‘ra lingvistik farqlar tushuniladi. o‘o‘ til deganda esa, ma’lum bir davlat o‘z davlat tilini shakllantirish maqsadida belgilangan hamda qoidalashdirilgan tilni anglatadi”.

Onishitaku Ichiro (2012) ning yuqoridagi ta’rifidan kelib chiqadigan bo‘lsak, muayyan til bilan dialekt yohud shevalarning farqi bu dialektlarda

qoidalashtirishning yoʻqligi desak toʻgʻri boʻladi hamda dialektlar muayyan bir tilning ichki boʻlinishining bir shakli hisoblanadi. Yaʼni, dialekt muayyan tilning ichki koʻrinishi va shu tilga xos boʻlgan grammatik, leksik, fonetik xususiyatlar dialektlar va muayyan til orasidagi bogʻliqlik hisoblanadi.

Yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda “dialekt” (sheva) tushunchasi maʼlum bir tilning ichida mavjud boʻlib, tilning qoidalashtirilmagan varianti hisoblanadi degan umumiy xulosaga kelish mumkin. Masalan, Kansai shevasida soʻz oxirida uchraydigan 「～やねん」 (-yanen) “umumxalq tilida” 「～だよ」 (-dayo)ga, Kansai shevasidagi 「ホンマ」 (honma) soʻzi “umumxalq tilida” 「本当」 (honto)ga toʻgʻri keladi. Muayyan til (○○til) bilan solishtirganda, masalan, 「本当」 (honto) ingliz tilida “Real, yoki really”, oʻzbek tilida “rost, haqiqatan”, rus tilida esa “действительно” ga toʻgʻri keladi. Albatta bunday solishtirish jarayonida shevadagi 「ホンマ」 (honma) kabi soʻzlar emas, adabiy tildagi 「本当」 soʻzi olinadi. Chunki 「ホンマ」 (honma) yapon tilidagi ichki boʻlinishning bir koʻrinishi hisoblanadi. Shu jihatdan dialekt, sheva va muayyan til orasidagi farqni ajratib olish mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, “dialekt” yoki “sheva” tushunchalari muayyan tilning ichki hodisasi hisoblanadi. Shuning uchun ham shu tilga xos boʻlgan grammatik, fonetik, leksik xususiyatlarining oʻxshash jihatlari boʻladi. Lekin dialekt yoki shevalar shu tildagi leksik, grammatik, fonetik xususiyatlarning oʻzgargan shaklini aks ettiradi.

1.3. Yapon tilida dialekt hamda shevaning “umumxalq tili” va “standart til” bilan farqli xususiyatlari

Maʼlum bir tildagi dialektlar yoki shevalarni tadqiq etishda albatta, shu tilning “adabiy tili” ga murojaat etiladi. Yapon tilida adabiy til vazifasini “standart til” (“hyoujyungo”) bajaradi. Bundan tashqari yapon tilida “standart til” va dialektlar uchun vositachi boʻlgan “umumxalq tili” (“kyoutsugo”) ham mavjud.

Shu o‘rinda tilning bu ichki bo‘linishlari orasida farqni ajratib olish muhim hisoblanadi.

Onishitaku Ichiro (2012) yapon tilidagi “standart til” va “umumxalq tili” bir-biriga juda o‘xshash bo‘lib, ba’zida ularni farqlamaslik holatlari ham mavjud. “Standart til” rasmiy til bo‘lib, Yaponiya industrial standartlashtirish (JIS) hamda Xalqaro Standartlashtirish Tashkiloti (ISO) tomonidan standartlashtirilgan til shakli bo‘lib, o‘zbek tilida bu shakl “adabiy til” ga to‘g‘ri keladi. “Standart til” asosan darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarda, NHK telekanalining axborotlari kabi rasmiy holatlarda foydalaniladi. “Umumxalq tili” esa “standart til” va shevalar oralig‘idagi til bo‘lib, u turli xil shevada so‘zlashadigan aholi uchun umumiy tushunarli bo‘lgan hamda standart til kabi qat’iy qoidalashtirilmagan, rasmiy holatlarda ishlatilmaydigan tilning ko‘rinishi hisoblanadi. “Umumxalq tili” barcha shevadagilar uchun umumiy xususiyatlarni o‘zida aks ettiradi. Masalan, “umumxalq tilidagi” 「前」 - mae (oldin, old tomon) so‘zi Nagoya shevasida 「マエデニ – maedeni」 kabi talaffuz etiladi-yu, shunga qaramasdan boshqa shevada so‘zlashadigan kishilar uchun ham bu tushunarli hisoblanadi. Mana bu “umumxalq tili”ning jamiyatdagi ahamiyati hidoblanadi.

“Dialekt” va “umumxalq tili”ning o‘xshash va farqli jihatlari mavjud. Quyida “Kansai” shevasi hamda “umumiy til”ning farqli xususiyatlarini Tanaka Tetsuya (2008) quyidagicha besh xil turini ko‘rsatib o‘tadi:

1. Bir bo‘g‘in cho‘zilish xususiyatiga ega;
2. Talaffuzda farqlanish mavjud;
3. Inkor so‘roq shakl 「～じゃない」 ya’ni, “-jyanai” Kansai dialektida 「～ちゃう」 “-chyau”ga aylanib ketadi. Masalan: 「行くんじゃない？」 → 「いくんちゃう？」 (ikunjyanai→ikunchyau);
4. Inkor shakl 「～ない」 ya’ni, “-nai” Kansai dialektida 「～へん」 (-hen)ga o‘zgarib ketadi. Masalan: 「行かない」 → 「行かへん」 (ikanai→ikahen);

5. So‘z shakllarining ifodalanishidagi farq. Masalan, “umumxalq tili”dagi rahmat ma’nosini anglatuvchi “arigatogozaimasu” 「ありがとうございます」 so‘zi Kansai shevasida “O:kini” 「おおきに」, iliq ma’nosini beradigan “atatakai” 「あたたかい」 so‘zi Kansai shevasida “nukui” 「ぬくい」, “yangi” ma’nosinini beradigan “atarashii” 「新しい」 so‘zi “sara” 「さら」 shaklida foydalaniladi.

Lekin Tanaka Tetsuya (2008) ajratib ko‘rsatgan xususiyatlardan tashqari yana boshqa farqli jihatlar ham mavjud. Bu haqida keyingi boblarda so‘z boradi.

Xulosa qilib aytganda, yapon tilida uch xil til shakllari “standart til” 「標準語」, “umumxalq tili” 「共通語」 hamda dialekt va shevalar (方言) mavjud ekan. Adabiy til vazifasidagi “standart til” va unga yaqin bo‘lgan “umumxalq tili”ning dialekt va shevalardan farqi ham, o‘xshash jihatlari ham leksik, grammatik, fonetik jihatdan qiqacha tahlil qilindi va ular orasidagi farqli va bog‘liq jihatlari Kansai shevasi misolida tahlil qilinib aniqlandi.

Mazkur BMIda shevalar va dialektlarni tahlil qilishda adabiy til vazifasidagi “standart til” va “umumxalq tili” xususiyatlariga tayanildi.

1.4. Dialekt va shevalarni guruhlash (方言区画論)

Yapon tilida shevalarni guruhlash 「方言区画論-“hougenkukakuron”」 deb nomlanib, yapon tili dialektologiyasida bu alohida bo‘lim saifatida o‘rganiladi. Matsumoto Isao (2010) ushbu bo‘limni bir-biriga yaqin bo‘lgan shevalar orasidagi farqlanishlarga asoslanib, Yaponiya orollarini shevalarga ajratish “hougenkukakuron” ya’ni “sheavlarni guruhlariga ajratish” deb ta’rif bergan.¹¹

¹¹ 松本功「ガイドブック方言研究」株式会社ひつじ書房。p7。

Yapon tili shevalarini guruhlashda bir qancha nazariyalar mavjud. Ushbu masala yuzasidan halicha tugal fikrga kelingani yo‘q. Shevalarni guruhlarga ajratishda ushbu yo‘nalishda salmoqli izlanishlar olib borgan hamda shu yo‘nalish asoschisi hisoblanmish Tojyo Misaoning nazariyasi ancha aniq va mukammal xususiyatga ega. Tojyo Misao 1927-yilda ishlab chiqqan nazariyaga ko‘ra, Yapon tilini ikki katta shevalar guruhiga: Ryukyu hamda mamlakat ichki hududi “Naichi” (内地) ga ajratadi. Unga ko‘ra, Ryukyu dialektiga Sakijima - 先島、Okinawa - 沖縄、Satsunan - 薩南 kabi hududlarning shevalari kiritilgan. “Naichi” (内地) ga esa Kyushyu—九州 hamda Xonshyu—本州 orollarining shevalari kiritilgan. Bular ham o‘z navbatida guruhlarga bo‘linib ketadi. Xonshyu dialektini G‘arbiy, Sharqiy va Markaziy Xonshyu shevalariga bo‘lib, ushbu BMI mavzusi hisoblanmish “Kansai” shevasi G‘arbiy Xonshyu dialektining Kinki (近畿方言) guruhiga mansub.

Tojyo Misaodan so‘ng 1949-yilda Tsudzuku Tsuneo tomonidan ishlab chiqilgan nazariya ham bir muncha mukammal. Unga ko‘ra Tsudzuku Tsuneo zamonaviy yapon tilini ikkita katta guruhga: Ryukyu va Xondoga bo‘ladi. U Xondo dialektini uchta katta guruhga: Kyushyu, G‘arbiy Xonshyu va Sharqiy Xonshyuga bo‘ladi. E‘tibor qiladigan bo‘lsak, Tsudzuku Tsuneo Tojyo Misaoga nisbatan, ancha mayda guruhlarga bo‘lganini ko‘ramiz. Ushbu nazariyaning Tojyo Misao nazariyasidan farqli xususiyati shundaki, Tsudzuku Tsuneo Kyushyu dialektini alohida guruhga ajratmaydi.

1955-yilda Kindaichi Haruhiko shevalarni guruhlashda yanada mukammal nazariyani ishlab chiqdi. U yapon tili dialektlarini uchta guruhga bo‘ldi. Ya‘ni, Kyushyu, G‘arbiy Yaponiya hamda Sharqiy Yaponiya dialektlariga bo‘lib, bunda ta‘kidlab o‘tish lozim bo‘lgan jihat shundaki, Kindaichi Haruhiko dialektlarni guruhlashda ko‘proq fonetik jihatdan yondashadi.

1954-yilda Tojyo Misao shevalarga ajratishning yana yangi nazariyasini ishlab chiqdi. Bu safar u Yapon tilini uchta yirik guruhlarga bo‘ldi: Kyushyu dialekti (九州方言)、G‘arbiy dialekt (西部方言) va Sharqiy (東部方言)

dialektlarga ajratdi. Bu bilan u shevalarni guruhlarga ajratishda yanada aniq hamda mukammal ajratish usulini ko'rsatib berdi. Buning uchun u shevalarning ham grammatik, ham fonetik ham leksik xususiyatlarini nazardan qochirmadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yapon tilshunosligida sheva yoki dialektlarni guruhlashda hali tugal fikrga kelingani yo'q hamda hozirgi kunda bu mavzuda turli xil munozaralar davom etib kelmoqda. Lekin yuqoridagi nazariyalarga tayangan holda yapon tili dialekt va shevalarini Kyushyu, Sharqiy va G'arbiy Yaponiyaga bo'lish deyarli barcha nazariyalarda umumiyligi kuzatildi.

Mazkur BMIda Tsudzuku Tsuneo tomonidan 1949-yilda ishlab chiqilgan nazariyaga tayaniladi. Chunki aynan ushbu nazariya boshqa nazariyalar bilan taqqoslaganda ancha mukammalroq variant hisoblanadi. 1927-tilda Tojyo Misao tomonidan yaratilgan birinchi nazariyasida Xondo dialektini guruhlashda biroz chigalliklar mavjud. 1954-yilda yaratilgan ikkinchi nazariyasida esa Ryukyu guruhi umuman nazarda tutilmagan. Kindaichi Haruhiko tomonidan 1955-yilda yaratilgan nazariyada ham xuddi shu kamchilikni kuzatish mumkin. Tsudzuku Tsuneo nazariyasida esa bu kamchiliklar deyarli bo'lmagani hamda aniq guruhlarga ajratilganligi sababli BMIda aynan ushbu nazariyaga tayanildi.

Birinchi bob yuzasidan xulosalar

Birinchi bob yuzasidan quyidagi umumiy xulosalarga kelindi:

- "Dialekt" tushunchasi ma'lum bir hududdagi alohida shakllangan so'zlar "dialekt" deb atalib, "adabiy til" va "umumxalq tili" bilan farqlanib turuvchi til shakli hisoblanadi. Yana boshqacha qilib aytganda dialekt – shevalar yig'indisi, Sheva esa ma'lum bir hududgagina xos bo'lgan so'zlarni anglatadi. "Dialekt" (sheva) tushunchasi ma'lum bir tilning ichida mavjud bo'lib, tilning qoidalashtirilmagan varianti hisoblanadi.

- Dialektlarning “umumiy til” 「共通語」 va “standart til” 「標準語」 dan farqli jihatlari grammatik, fonetik, leksik jihatdan farqlanadi. Aynan “Kansai dialekti” misolida yuqorida ko‘rib o‘tildi.
- Yapon tilida shevalarni guruhlash 「方言区画論-“hougenkukakuron”」 deb nomlanib, yapon tili dialektologiyasida bu alohida bo‘lim sifatida o‘rganiladi. Yapon tili shevalarini guruhlashda bir qancha nazariyalar mavjud. Bir necha nazariyalar qiyosiy tahlil etildi va nazariyalardagi ba’zi bir kamchiliklar aniqlandi. Tahlil natijalariga tayangan holda BMI uchun Tsudzuku Tsuneoning nazariyasi asos qilib olindi.

II BOB. “KANSAI SHEVASI” VA “MUMTOZ YAPON TILI”NING O‘ZARO O‘XSHASH VA FARQLI JIHATLARI

2.1. Kansai shevasi va uning o‘ziga xos xususiyatlari

“Kansai” dialekti Tojyo Misaoning G‘arbiy dialekti guruhiga, Tsudzuku Tsuneoning G‘arbiy Xonshyu guruhiga, Kindaichi Haruhikoning G‘arbiy Yaponiya dialekti guruhiga mansub bo‘lib, Kansai hududining Osaka, Kyoto hamda Kobe hududlarida ishlatiladigan shevalarini birlashtiradi. Kansai dialekti bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Oldingi boblarda Tanaka Tetsuya (2008) ajratib bergan besh xil xususiyatlardan (14-betga qarang) boshqa yana bir qator xususiyatlari mavjud. Quyida ularning tahlilini keltirib o‘tiladi.

Grammatik xususiyatlari 「文法」

a) Inkor shakl 「否定表現」

Kansai dialektining eng ko‘zga tashlanadigan xususiyati bu – inkor shaklining “umumiy til” va boshqa shevalardan farqlanishi hisoblanadi. Yapon tilining “umumiy til” (“kyoutsugo”)da inkor shakl yasovchi 「～ない(-nai)」 qo‘shimchasi o‘rnida Kansai shevasida 「～へん(-hen)」 qo‘shimchasi ishlatiladi. Masalan, “ketmoq”, “bormoq” ma’nosini beruvchi – “iku” (行く) fe’lining inkor shakli “umumiy til”da 「行かない(ikanai)」 bo‘lsa, Kansai shevasida esa 「行かへん(ikahen)」 ga o‘zgarib ketadi.

b) Inkor so‘roq shakli 「否定疑問」

Inkor so‘roq shakli 「～じゃない」 ya’ni, “-jyanai” Kansai dialektida 「～ちやう」 “-chyau”ga aylanib ketadi. Masalan: 「行くんじゃない？」 → 「いくんちやう？」 (ikunjyanai→ikunchyau).

1. Leksik xususiyatlari 「語彙」

Kansai shevasining leksik xususiyatlari o‘ziga xos. Undagi so‘zlar “umumiy til” va “standart til”dan butunlay farq qiladi. Masalan, “yangi” ma’nosini beruvchi “umumiy til” va “standart til”da 「あたらしい-atarashii」 deb talaffuz qilinadigan so‘z Kansai shevasida butunlay o‘zgarib 「さら-sara」 so‘zi ishlatiladi. Umumiy tilda “rostdan, haqiqatan” ma’nosini anglatuvchi 「実際は-jissaiwa」 so‘zi o‘rnida Kansai dialektida 「しょうみ-shyomi」 so‘zi ishlatiladi. “Umumxalq tili”da narx ma’nosida “qancha” 「いくら-ikura」 so‘zi o‘rnida 「なんぼ-nanbo」 ishlatiladi. Bu kabi leksik xususiyatlarning muhim bir jihati shundaki, Kansai shevasida bunday leksik birliklar bilan bir paytning o‘zida “umumxalq tili”dagi shu so‘zlarning ekvivalenti ishlatilmaydi. Ushbu dialektning yana bir o‘ziga xosligi shundaki, bu shevada ko‘proq “mumtoz yapon tili”ning saqlanib qolganligidir. (Bu haqida keyingi boblarimizda so‘z yuritamiz.) Shu jihatdan Kansai shevasi 「伝統性のある」 ya’ni, o‘zida “an’anaviylikni saqlagan” sheva deb ataladi.

2. Fonetik xususiyatlari 「音便」

- a) Kansai shevasining fonetik xususiyatlari o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Kansai shevasida unli tovushlar aniq talaffuz etiladi. Jarangsiz tovushlar Sharqiy Yaponiya shevalari bilan taqqoslaganda, xususan, shimoliy hududlar (北陸) hamda tog‘li hududlarga (山陰) nisbatan kam uchraydi. Yonma-yon kelgan unlilarning qo‘shilib talaffuz etilishi kuzatilmaydi. Aynan 「う」 unlisi cho‘zib talaffuz etiladi. Masalan, おはようございますう – ohayogozaimas emas, balki ohayogozaimasuu tarzida yoki fe’lning kesimlik shakli hisoblanmish 「です・ます形 – “desu-masu” shakli」 “standart til” yoki “umumiy til”da “des-mas” tarzida talaffuz etiladi, ammo Kansai shevasida 「ですう・ますう – desuu-masuu」 shaklida “u” unlisi cho‘zib talaffuz etiladi.

- b) ガ行鼻音 “ga” qator burun tovushlari mavjud emas. Bu ko‘proq sharqiy dialektlarga, xususan, Tokyo shevasiga taaluqli.
- c) 「せ-se」 va 「ぜ-ze」 tovushlari Kansai shevasida 「しえ-shye」 hamda 「じえ-jye」 tarzida talaffuz etiladi. 「せ」 va 「ぜ」 kelib chiqishidan Kanto shevasiga taaluqli bo‘lib, G‘arbiy hududlarning barcha shevasida ancha oldindan 「しえ-shye」 yoki 「じえ-jye」 tarzida talaffuz etilib kelgan.
- d) ワ行五段動詞の連用形 ya’ni “wa” qator fe’llarining sifatdosh shakli 「ウ音便」 – “u” unlisiga aylanadi. Masalan, こーた（買った）、ゆーた（言った）、おもーた（思った） kabi.
- e) Kansai dialektida inkor shaklni ifodalaydigan 「～へん - hen」 qo‘shimchasi 「ヒン - hin」 shaklida ham talaffuz etiladi. Masalan, Minami Masahikoning fonetik analizi natijasida progressiv va regressiv assimilyatsiya hodisasi sodir bo‘lishi kuzatilgan. Masalan, Osakada 「でけへん - dekehen」 yoki 「書けへん - kakehen」 so‘zlarida regressiv assimilyatsiya, Kyoto shevasida esa 「できヒン - dekihin」 progressiv assimilyatsiya sodir bo‘lgan. Buni asoslash uchun adabiy til sifatida vujudga kelgan “umumiy til” (“kyoutsugo”)da bu so‘z 「できない - dekinai」 so‘zi bilan qiyosiy tahlil qilganimizda o‘zak $でき+へん=でけへん$ tarzida shakllangan. Ya’ni tovushlar moslashuvi assimilyatsiya hodisasi sodir bo‘lgan. Osaka shevasidagi 「でけへん - dekehen」 so‘zidagi 「へん」 inkor qo‘shimchasi o‘zakdagi 「き」 tovushiga ta’sir qilib, 「け」 ga o‘zgartirib yuborgan. Bu yerda regressiv assimilyatsiya hodisasini guvohi bo‘lish mumkin. Kyoto shevasida esa bu qo‘shimcha 「ヒン - hin」 tarzida talaffuz etiladi. Buning sababi o‘zakdagi 「き-ki」 tovushi 「へん - hen」 qo‘shimchasini o‘ziga moslashtirib progressiv assimilyatsiyani hosil qilgan.

Xulosa qilib aytganda, Kansai shevasida Tanaka Tetsuya nazarda tutmagan yana bir qator xususiyatlar mavjudligi ko‘rildi. Jumladan, fonetik xususiyatlardan biri bo‘lmish ガ行鼻音 - “ga” qator burun tovushlarining mavjud emasligi, 「せ-se」 va 「ぜ-ze」 tovushlari Kansai shevasida 「しえ-shye」 hamda 「じえ-jye」 tarzida talaffuz etilishi, ワ行五段動詞の連用形 ya’ni “wa” qator fe’llarining sifatdosh shakli 「ウ音便」 – “u” unlisiga aylanishi, fe’lning inkor shaklini yasovchi 「ヘン - hen」 qo‘shimchasi qo‘shilganda so‘zlarda assimilyatsiya hodisasi yuz berishi kabi xususiyatlarni ham ko‘rish mumkinligi ham aniqlandi.

2.2. “Mumtoz yapon tili” va uning o‘ziga xos xususiyatlari

Mumtoz yapon tili 「古語 - kogo」 o‘rta asrlar tili hisoblanib, Xeyan davridan Edo davrigacha bo‘lgan davrda foydalanilib kelingan. Undan so‘ng o‘zgarishlarga uchrab, hozirgi zamonaviy yapon tili shakllanishiga asos bo‘lgan. Hozirgi kunda faqatgina yozma adabiyotda, maqollardagina saqlanib qolgan. Mumtoz yapon tili 「古語 - kogo」 deb atalishdan tashqari, 「文語 - bungo」 ya’ni “yozma til” deb ham ataladi. 「文語 - bungo」 yoki 「古語 - kogo」 ning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilar:

1. 「は・ひ・ふ・へ・ほ」 tovushlari 「あ・い・う・え・お」 tarzida talaffuz etiladi. Masalan, quyida “kogo” – mumtoz yapon tilida yozilgan “Takatori-monogatari” (“Bambuk kesuvchi chol qissasi”) asaridan parcha misolida ushbu xususiyatni tahlil etamiz:

(1) 今は昔、竹取の翁といふ者ありけり。野山にまじりて竹を取りつつ、よろづのことに使ひけり。名をば、さかきの造となむいひける。¹²

¹² 柳町敬直「竹取物語・伊勢物語・大和物語・平中物語」1994年 図書印刷株式会社。p17。

- (2) 昔々、竹取の翁がいた。野や山に分け入って竹を取っては、いろいろなことに使っていた。(現代語訳)

「竹取の翁といふ者」 hozirgi yapon tilida 「竹取の翁といふ者」, 「よろづのことに使ひけり」 esa 「使ひけり」, 「さかきの造となむいひける」 bO'lsa 「なむいけり」 deb o'qiladi. Ya'ni bu yerda ふ(fu)→う(u), ひ(hi) esa い(i) deb talaffuz etiladi va shunday o'qiladi.¹³

2. Tovushlarni cho'zib talaffuz etish:

- a) 「アウ - au」 unlilari ketma-ket kelganda 「オー(o:)」 tarzida talaffuz etiladi va shunday o'qiladi. Masalan, ほうべん(hauben)→方便(ほうべん-houben), やうに(yauni)→様に(ように-youni) tarzida;
- b) 「イウ - iu」 unlilari ketma-ket kelganda 「ユー(yu:)」 tarzida talaffuz etiladi va xuddi shunday o'qiladi: ひさしう(hisashiu)→久しゅう(hisashyu:), いふ(ihu) (言う) →ユー(yu:) tarzida talaffuz etiladi;
- c) 「エウ - eu」 unlilari ketma-ket kelganda 「ヨー(yo:)」 tarzida, masalan, けうくん(keukun)→教訓(kyo:kun), けふ(kefu)→今日(kyo:) tarzida talaffuz etiladi;
- d) 「オウ - ou」 unlilari ketma-ket kelganda 「オー(o:)」 tarzida cho'zib talaffuz etiladi. Masalan, 思ふ(omohu)→思う(omo:)¹⁴

¹³ Asardan olingan bu parcha Xeyan davriga taaluqli mumtoz yapon tili namunasi bo'lib, undagi leksik, grammatik birliklar bugungi yapon tilida butunlay o'zgarishga uchragan. Ularni tahlil qilish uchun yapon mumtoz adabiyoti to'plami (柳町敬直「竹取物語・伊勢物語・大和物語・平中物語」1994年 図書印刷株式会社) hamda Shimizu Fumio, Matsumura Akira, Mashimo Saburoning "Mumtoz yapon tili grammatikasi" (清水文雄・松村明・真下三郎「古典文法」) nomli adabiyotlardan foydalanildi.

¹⁴ Shimizu Fumio, Matsumura Akira, Mashimo Saburoning "Mumtoz yapon tili grammatikasi" 8-9 betlar.

3. 「む - mu」 tovushi ko‘pincha 「ん - n(un)」 tarzida talaffuz etiladi.

Masalan, さかきの造となむ(nan)いひける, ひむ(hin)がし→東 (ひがし) tarzida talaffuz etiladi.

So‘zlarning tuzilishiga ko‘ra turlari:

1. Sodda so‘zlar (単純語) : 空、行く、清し、いと、けり。
2. Murakkab so‘zlar (複合語) : 朝日、春風、小川、近寄る。
3. Takroriy so‘zlar (豊語) : 山々、国々、われわれ、しばしば。
4. 派生語 : うちおぼめく、はるめく、さびしげ。

Yuqoridagi asar parchasining hozirgi yapon tiliga o‘girilgan tabdili quyidagicha:

今では、もう昔の話となったが、竹取の翁という者がいたそうだ。野や山に分け入って、竹を取っては、いろいろな器具を作るのに使ったそうだ。その名を、さかきの造と言ったそうだ。

Yuqorida keltirilgan asar parchasini tahlil qilinganda, ushbu parchada hozirgi yapon tilida iste’moldan chiqqan so‘zlar, so‘z birikmalarini uchratishimiz mumkin. Masalan, 「今は昔」、「まじりて」、「よろづのこと」、「名をば」 kabi so‘zlarni misol qilib keltirishimiz mumkin. 「今は昔」 birikmasi hozirgi yapon tilida 今では、もう昔の話となったが ya’ni, “bundan ancha avvalgi voqea-yu” so‘z birikmasiga to‘g‘ri kelib, to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qilinganda nutqiy g‘alizlik yuzaga kelishi mumkin. Keyingi so‘zlarni ham xuddi shunday hozirgi tilga o‘giriladi. 「まじりて = 分け入って」、「よろづのこと = いろいろな器具」、「名をば = その名を」. Mumtoz asarlarni to‘g‘ri tabdil etish uchun maxsus lug‘atlar yaratilgan.

「竹取の翁といふ者ありけり」 asarda ushbu parchani grammatik tahlil qilinganda “bambuk kesuvchi chol **bo‘lgan ekan**” degan ma’nodagi gapda

“bo‘lgan ekan” ma’nosini beruvchi 「ありけり」 so‘zi hozirgi yapon tiliga 「いたそうだ」 deb tabdil qilinadi. 「ありけり」 ning 「けり」 bilan tugallanishi bu mumtoz yapon tilining o‘ziga xos xususiyati bo‘lib, o‘tgan zamon ma’nosini berishda qo‘llanilgan. Bugungi yapon tilida bu grammatik qurilish o‘rnida 「た形 – ta shakli」 ishlatiladi.

Yuqoridagi tahlillarni xulosalaganda, mumtoz yapon tili o‘rta asrlar (Xeyan davri) tili bo‘lib, hozirgi zamonaviy yapon tilidan fonetik, grammatik, morfologik (so‘zlarning tuzilishi) jihatidan farqlanishi “Taketori-monogatari” (“Bambuk kesuvchi chol qissasi”) asari misolida tahlil qilinib aniqlandi.

Mazkur BMIda mumtoz yapon tilining xususiyatlarini tahlil etishning asosiy sababi mumtoz yapon tilining hozirgi kunda ham shevalarda, xususan, Kansai shevasida mavjudligi hisoblanadi. (Keyingi boblarda bunga batafsil to‘xtaladi.)

2.3. “Kansai shevasi” va “Mumtoz yapon tili” ning o‘zaro o‘xshash va farqli jihatlari

- 1) Grammatik jihatdan farq qiladi. Masalan, yuqorida misol tariqasida tahlil etilgan “Taketori-monogatari” asaridagi parchada ifodalangan o‘tgan zamon ma’nosini beruvchi 「けり」 kabi grammatik qurilishlar misol bo‘la oladi. Kansai shevasida esa o‘tgan zamon shakli hozirgi zamonaviy yapon tilining 「た形」 shakli bilan yasaladi.
- 2) Mumtoz yapon tilida hozirgi zamonaviy yapon tilida, xususan Kansai shevasida ham mavjud bo‘lmagan so‘zlarni uchratish mumkin. Masalan, 「よろづのこと」 kabi so‘zlar.
- 3) So‘z shakli bir xil, ammo ishlatilish ma’nosi turli-tuman so‘zlar mavjud. Masalan, mumtoz yapon tilidagi 「うつくし」 so‘zi hozirgi zamonaviy yapon tilidagi 「かわいい」 so‘ziga to‘g‘ri keladi. Hozirgi zamonaviy yapon tilida 「うつくし」 so‘zi “go‘zal, chiroyli” ma’nolarida qo‘llaniladi.

Kansai shevasida esa bu soʻzning hozirgi zamonaviy yapon tilidagi maʼnosi ishlatiladi. Mumtoz yapon tili sifatlarning ikki xil turi: “ku” sifatlari va hamda “shiku” sifatlariga boʻlinadi. Sifatlarning bu xil turlarga boʻlinishi hozirgi zamonaviy yapon tilida “na” sifatlari va “i” sifatlariga boʻlinadi. Kansai shevasidagi sifatlarda esa mumtoz yapon tilidagi kabi ishlatiladi. Masalan:

(3) 「仲良き」

(4) 「愛妻やいとし子をうつしたらどうやのん。」

(5) 「いや、そんなもんもよろし」

Bundan tashqari sifatlarning inkor shaklining yasalişida “u” qator unlisining choʻziq talaffuz etilishi kuzatiladi:

(6) 「ちょっとでも暗うなったら僕、泣くで」

(7) 「「もう長くない」というのは、夫が、自分で自分の寿命を推測して発する予告である。」

4) Yozma nutqda “kanadzukai” farqlanadi. Masalan, 「竹取の翁といふ者、使ひけり。」 dagi 「ふ - fu」 hamda 「ひ - hi」 harflari hozirgi zamonaviy yapon tilida 「う」 va 「い」 harflariga oʻzgaradi. Bunga sabab oʻrta asrlarda 「ふ - fu」 hamda 「ひ - hi」 harflari yozma nutqda shunday ishlatilsa-da, 「う」 va 「い」 tarzida oʻqilgani va talaffuz etilgani sabab boʻlgan boʻlishi mumkin. Aynan 「ふ - fu」 kanadzukai 「う - u」 tarzida talaffuz etilishi hozirgi Kansai shevasida “u” tovushining choʻziq talaffuz etilishiga sabab boʻlgan boʻlishi mumkin.

5) Mumtoz yapon tili leksikasi boʻyicha bir qator baxsli munozaralar bor. Soʻzlarni kelib chiqishini olimlar turlicha asoslaydilar. Masalan, Edo davrida chop etilgan 『日本釈名』 nomli etimologik (soʻzlarning kelib chiqishi haqidagi) lugʻatda 「ねこ - mushuk」 soʻzining kelib chiqishini quyidagicha asoslab berilgan:

「ねは、ねずみ也。こは、このむ也。ねずみをこのむけもの也。一説、猫はよく寝るもの也。ねるこのむ意か。」とあり、「ねずみをこのむ」からとか「ねるをこのむ」から「ねこ（猫）」と言われたと考えていたことがわかる。」 ya'ni “ねこ (neko) – mushuk so‘zidagi 「ね-ne」 bu ねずみ(nezumi-kalamush)dagi 「ね-ne」, 「こ - ko」 esa、 「このむ – konomu (yaxshi ko‘rmoq)」 dagi “ko” bo‘lib, mushuk kalamushni yeyishni yaxshi ko‘rishiga bog‘lab, “neko - mushuk” so‘zi kelib chiqqan yoki 「ねこ」 dagi 「ね - ne」 ni 「ねる – neru(uxlamoq) fe’li bilan bog‘lab, uxlashni yoqtiradigan hayvon tarzida izohlashgan”.

“Bungo” 文語 yoki “Kogo” (古語) grammatik jihatdan Xeyan davri til qoidalariga asos qilib olingan. Hozirgi zamonaviy yapon tili esa yozma va og‘zaki turlarga bo‘linib, hozirgi zamonaviy yapon tili qoidalari asos qilib olingan.

- 6) Kyushyu, Kansai hududlarida hali ham mumtoz yapon tilining grammatik shakllari yashab kelmoqda. Masalan, hozirgi zamonaviy yapon tilidagi、「起きる」 fe’lining infinitiv va inkor shakli 「起きる・起き（ない）」 bo‘lsa, mumtoz yapon tilida bu fe’l 「起くる・起き（ぬ）」 shaklida bo‘lgan. 「～ぬ - nu」 qo‘shimchasi inkor shakl yasab hozirgi zamonaviy yapon tilida 「～ない - nai」 shaklida ishlatiladi. 「おる」 fe’li mumtoz yapon tilida iste’molda bo‘lgan so‘z bo‘lib, hozirgi zamonaviy yapon tilida bu 「いる・ある – mavjud bo‘lmoq, bor bo‘lmoq」 fe’liga to‘g‘ri keladi va Kansai shevasida 「いる・ある – mavjud bo‘lmoq, bor bo‘lmoq」 emas, balki mumtoz yapon tilidagi 「おる」 fe’li qo‘llaniladi.

Xulosa qilib shuni aytib o‘tish mumkinki, “Kansai shevasi” mumtoz yapon tilining juda ko‘p xususiyatlarini o‘zida jamlagan bo‘lib, shevalar ichida mumtoz yapon tiliga eng yaqin sheva hisoblanadi. Tahlillar natijasi shuni ko‘rsatadiki,

Kansai shevasi mumtoz yapon tilining bir qator o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettirganligi uchun ham “an’anaviy sheva” degan nomni olgan.

2.4. “Adabiy til” (“standart til” va “umumxalq til”)ga o‘tgan “Kansai” shevasi

Zamonaviy Yaponiya jamiyatida ikki xil variantdagi til shakllari mavjud. Ulardan biri “hududiy so‘zlar” bo‘lsa, ikkinchisi “standart til” yoki “adabiy til” hisoblanadi.

2006-yilda Takagi Chie yapon tilini ikkiga “standart shakl” va “hududiy shakl”ga bo‘ldi.¹⁵

“*Standart shakl*” ba’zida “standart til” yoki “adabiy til” deb ham yuritilgan tilning bu shakli Meydzi inqilobidan so‘ng mamlakatni modernizatsiyalash yo‘lida “Butun mamalakat bo‘ylab tilning yagonaligi” e’lon qililib, markazdan qo‘shni hududlarga yoyilgan tilning yangi shakli hisoblanadi.

“*Hududiy shakl*” esa ma’lum bir hududdagina iste’molda bo‘lgan tilning bir shakli bo‘lib, dunyo tillarining barchasida mavjud bo‘lgan hududiy shevalar (dialektlar) tushunchasini anglatadi.

Shunday hududiy shakl bo‘lgan “Kansai shevasi” ning ayrim so‘zlari adabiy tilga o‘tganini kuzatish mumkin.

Kansai shevasi	“Umumxalq tili” (“kyoutsugo”)
からい・塩辛い←	→しょっぱい
けむり・けぶり←	→けむ・けぶ
校区←	→学区
こそばゆい・こそばい (い) ←	→くすぐったい
酸い←	→酸っぱい

¹⁵ 高木千恵(2006)「関西若年層の話しことばにみる言語変化の諸相」『阪大日本語研究』別冊2号。大阪大学大学院文学研究科日本語学講座。

炊く←	→煮る
梅雨←	→入梅
むづかしい←	→むずかしい
(ご飯を) よそう・つぐ←	→盛る

Yuqoridagi jadvalda “umumxalq tili” (共通語) da Kansai shevasidagi soʻzlar variant odatda koʻproq ishlatilishi koʻrsatilgan. Masalan, umumxalq tilidagi 「けむ・けぶ – kemu/kebu」 soʻzi oʻrnida koʻproq Kansai shevasidagi 「けむり・けぶり – kemuri/keburi」 soʻzi ishlatiladi. Kansai shevasidagi 「梅雨 -tsuyu」 soʻzi umumxalq tilida deyarli butunlay oʻrnashib qolgan. Bu soʻzning umumxalq tilidagi variant 「入梅 - nyubai」 soʻzi koʻproq yozma nutqda saqlanib qolgan. Bu soʻzlarning eʼtiborli jihati shundaki, umumxalq tilida ishlatilayotgan Kansai shevasidagi soʻzlar aynan shu sheva soʻzlari deb emas, balki umumxalq tili (共通語) ga tegishli deb qaraladi. Lekin soʻzlarning kelib chiqishi jihatidan qaralganda bu soʻzlar Kansai shevasiga tegishlilikini aniqlash mumkin.

Ikkinchi bob yuzasidan xulosalar

Xulosa qilib aytganda, Kansai shevasi (関西弁) Kansai hududiga qarashli boʻlgan Osaka, Kyoto hamda Kobeda ishlatiladigan shevalarni ifodalaydi. Kansai dialekti bir qator oʻziga xos xususiyatlarga ega. Ushbu bobda tahlil etilgan xususiyatlardan kelib chiqib quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Kansai dialektining grammatik xususiyati, xususan, inkor shakl yasovchi 「～へん」 qoʻshimchasining grammatik qurilishi koʻrib chiqildi hamda fonetik jihatdan assimilyatsiya hodisasi sodir boʻlishi tahlilda koʻrildi.

2. Leksik tahlilda ham Kansai shevasining o‘ziga xos xususiyatlari aniqlandi. 「さら」、「しょうみ」、「なんぼ」 so‘zlari misolida “umumiy til” (“kyoutsugo”) bilan qiyosiy tahlil qilindi. Kansai shevasida so‘zlar “umumiy til” yoki “standart til” dan butunlay farqlanishi aniqlandi.
3. Fonetik tahlilda esa Kansai shevasining fonetik xususiyatlaridan unli tovushlar aniq talaffuz etilishi, jarangsiz tovushlar Sharqiy Yaponiya shevalari bilan taqqoslaganda, xususan, shimoliy hududlar (北陸) hamda tog‘li hududlarga (山陰) nisbatan kam uchrashi, yonma-yon kelgan unllarning qo‘shilib talaffuz etilishi kuzatilmasligi aniqlandi. Kansai shevasida inkor shaklni ifodalaydigan 「～へん - hen」 qo‘shimchasi 「ヒン - hin」 shaklida ham talaffuz etilishi fonetik analizi natijasida progressiv va regressiv assimilyatsiya hodisasi sodir bo‘layotganligi Osaka va Kyoto shevasi misolida aniqlandi.
4. Mumtoz yapon tili 「古語 (文語)」 haqida ma’lumot berilib, uning fonetik, grammatik, leksik xususiyatlari ko‘rib chiqildi va quyidagilar aniqlandi:
 - は・ひ・ふ・へ・ほ」 tovushlari 「あ・い・う・え・お」 tarzida talaffuz etiladi. 今いまは昔むかし、竹取の翁おきなといいふ者ものありけり。野山ののにまじりて竹を取りつつ、よろづのことに使いひけり。名なをば、さかきの造たからとなむいいひける。
 - Tovushlarni cho‘zib talaffuz etish:
 - a) 「アウ - au」 unilari ketma-ket kelganda 「オー(o:)」 tarzida talaffuz etiladi va shunday o‘qiladi.
 - b) 「イウ - iu」 unilari ketma-ket kelganda 「ユー(yu:)」 tarzida talaffuz etiladi va xuddi shunday o‘qiladi.

- c) 「エウ - eu」 unlilari ketma-ket kelganda 「ヨー(yo:)」 tarzida talaffuz etiladi;
 - d) 「オウ - ou」 unlilari ketma-ket kelganda 「オー(o:)」 tarzida cho‘zib talaffuz etiladi.
5. 「む - mu」 tovushi ko ‘pincha 「ん - n(un)」 tarzida talaffuz etilishi kuzatildi.

“Mumtoz yapon tili” ning hozirgi zamonaviy yapon tili bilan o‘zaro o‘xshash va farqli jihatlari bo‘yicha quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Grammatik jihatdan farq qiladi. Masalan, o‘tgan zamon ma’nosini beruvchi 「けり」 kabi grammatik qurilishlar misol bo‘la oladi.
2. Mumtoz yapon tilida hozirgi zamonaviy yapon tilida mavjud bo‘lmagan so‘zlarni uchratish mumkin. Masalan, 「よろづのこと」 kabi so‘zlar.
3. So‘z shakli bir xil, ammo ishlatilish ma’nosi turli-tuman so‘zlar mavjud. Masalan, 「うつくし」 hozirgi zamonaviy yapon tilida “go‘zal, chiroyli” ma’nolarida qo‘llaniladi.
4. Yozma nutqda “kanadzukai” farqlanishi 「ひ- hi」 「ふ - hu/fu」 misolida aniqlandi.
5. “Bungo” 文語 yoki “Kogo” (古語) grammatik jihatdan Xeyan davri til qoidalariga asos qilib olingan. Hozirgi zamonaviy yapon tili esa yozma va og‘zaki turlarga bo‘linib, hozirgi zamonaviy yapon tili qoidalari asos qilib olingan.
6. Mumtoz yapon tilining hozirgi kunda ayrim shevalarda uchrashi Kansai shevasi misolida ko‘rib chiqildi.
7. Adabiy tilga albatta, qaysidir sheva asos bo‘ladi. Yapon tilida esa adabiy tilning shakllanishida asos qilib bir necha shevalar olingan. Asosan, Tokyo shevasi ko‘proq adabiy tilga yaqin. Lekin, adabiy tilga

tenglashtilgan “standart til” hamda “umumiy til”da Kansai shevasidagi soʻzlarni ham uchratishimiz mumkinligi aniqlandi.

III BOB. YAPON TILIDA KONTAKT JARAYONI ORQALI VUJUDGA KELAYOTGAN “YANGI SHEVA”NING SHAKLLANISH SABABLARI

3.1. Yapon tilida kontakt jarayoni orqali vujudga kelayotgan “Yangi sheva” (ネオ方言)

Lingvistik jarayonlardan ma'lumki, til ichki va tashqi omillar ta'siri natijasida leksik jihatdan boyib boradi. Tashqi omil bu – yangi o'zlashma so'zlarning paydo bo'lishi bo'lsa, ichki omil – shevalardan so'z olish hisoblanadi. Bu albatta tildagi “kontakt” jarayoni bilan uzviy bog'liq. “Kontakt” so'zi “munosabatga kirishish, aloqaga kirishish” ma'nolarini berib, lingvistik atama sifatida esa “yondosh tillar”ni vujudga keltiruvchi jarayon hisoblanadi. Bunday tillar adabiy til va shevalar orasidagi kontakt orqali vujudga keladi.

Yapon tilining o'ziga xos xususiyatlari shundaki “umumxalq tili” (“kyoutsugo”) hamda shevalarning o'zaro ta'siri natijasida har bir hududda “oraliq shakl” yoki “oraliq sheva” vujudga kelmoqda.

“Standart til” 「標準語」 yoki “umumxalq tili”da 「共通語」 “bormoq” ma'nosidagi 「来る - kuru」 fe'lining inkor shakli 「こない - konai」 bo'lsa, Kansai shevasining Osaka hududida ishlatiladigan variantida 「ケーヘン - ke:hen」 Kyoto hududida esa 「キーヒン - ki:hin」 deb talaffuz etiladi. Bu so'zlarning o'zaro ta'siri natijasida faqatgina yoshlar tomonidan ishlatiladigan “Yangi sheva” ya'ni “standart til” yoki “umumxalq tili”dagi 「こない - konai」 fe'lining 「こ - ko」 Kansai shevasining inkor shakl yasovchi qo'shimchasi 「～へん - hen」 ning o'zaro ta'siri natijasida 「こ+へん - ko+hen」 ya'ni, 「コーヘン - ko:hen」 shakli vujudga kelmoqda. Bu yapon tilida “Yangi sheva” 「ネオ方言」 yoki “oraliq sheva” 「中間方言」 deb nomlanadi. Bu “Yangi sheva” Kansai shevasi hamda “umumxalq tili”ning aralashishi natijasida yuzaga kelmoqda. Qiyosiy tahlil uchun quyidagi jadval keltiriladi.

共通語	ネオ方言	大阪市	京都市	その他関西
コナイ	コーヘン	ケーヘン	キーヒン	キヤヘン コン

Sanada Shinji (真田真治) birinchi bo‘lib, 1990-yilda “yangi sheva” (ネオ方言) tushunchasini yapon tilshunosligida vujudga kelayotganini birinchi bo‘lib asoslab berdi.

Sanada Shinji ifodalab bergan “bormoq” fe‘lining “Yangi sheva”dagi variantidan tashqari Kansai shevasiga xos bo‘lgan Osaka hamda Kobe hududlarida yoshlar tomonidan talaffuz qilinayotgan so‘zlarda ham “Yangi sheva”ni ko‘rish mumkin. An’anaviy Kansai shevasida 「雨 - ame」, 「船 - fune」, 「海 - umi」, 「傘 - kasa」 so‘zlariga yordamchi so‘z 「が - ga」 qo‘shimchasi qo‘shilib, 「雨が - amega」, 「船が - funega」, 「海が - umiga」, 「傘が - kasaga」 deb talaffuz qilinganda 「が - ga」 yuqori talaffuz etilib, “past→pastroq→yuqori” (LLH) kabi urg‘u beriladi. Bunga ko‘ra, 「春 - haru」, 「雨 - ame」, 「窓 - mado」, 「汗 - ase」 so‘zlarini 「春が - haruga」, 「雨が - amega」, 「窓が - madoga」 「汗が - asega」 deb talaffuz etilganda 「が - ga」 qo‘shimchasi past →baland →past (LHL) tarzida talaffuz qilinadigan bo‘lsa, bu Kansai shevasiga xos talaffuz etish bo‘ladi. Bu borada Kansai shevasida talaffuz etishning o‘ziga xos farqli jihatlari mavjud, lekin adabiy tilga asos bo‘lgan “Tokyo shevasida” bu farqlanmaydi, ya’ni baland →past→past (HLL) shaklida talaffuz etiladi.

Lekin so‘nggi paytlarda Kansai shevasida ham urg‘uni farqlash yo‘qolib, “Yangi sheva”dagi kabi past→past →baland (LLH) shaklida talaffuz etilmoqda. “Yangi sheva” siyosat, iqtisod, madaniyat Tokyoda faol rivojlanayotgani sababli yanada keng yoyilmoqda. “Oraliq sheva” 「中間方言」 yoki “Yangi sheva” 「ネオ方言」 sheva (dialekt) uslubini va “umumxalq tili” uslubini o‘zida jamlagan sheva hisoblanadi.

“Umumxalq tili” (共通語) da 「駄目じゃないの - damejyanaino」 birikmasi Osaka shevasida 「あきまへんがな - akimahengana」 tarzida ishlatiladi, lekin oxirgi paytlarda yoshlar tomonidan (ayollar, qizlar) 「アカンや ないの - akanyanaino」 tarzida talaffuz etilib kelinmoqda. Bu hammaga ma'lum bo'lgan “umumxalq tili” hamda “Kansai shevasi”ning o'zaro ta'siri (kontakti) orqali shakllanayotgan so'z shakllaridan hisoblanadi.¹⁶

Shunday qilib, yapon tilida “kontakt” jarayoni orqali vujudga kelayotgan yondash til – “Yangi sheva” ning xususiyatlarini umumiyashtirilganda, quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Yapon tilida “kontakt” jarayoni natijasida sheva va “umumxalq tili”ning aralash shakli – “Yangi sheva” shaklida vujudga kelmoqda.
2. “Yangi sheva” o'zida ham adabiy tilga yaqin bo'lgan “umumxalq tili” xususiyatlarini, ham sheva xususiyatlarini jamlaydi.
3. “Yangi sheva”ni vujudga keltiruvchi omili sifatida “yoshlar” ko'rsatilayotganligi ayon bo'ldi. Aynan yoshlar nutqida so'z o'zgarishlari jadal bormoqda degan xulosaga kelish mumkin.
4. Yapon tilidagi hozirgi “Yangi sheva” Kansai hududida shakllanmoqda. Shu sababli Kansai shevasining deyarli barcha xususiyatlari “Yangi sheva”da mujassam degan xulosani berish mumkin.

¹⁶ カルチャー&エンタテインメント-2001年6月24日「地方共通語」とも呼ばれる。

3.2. Mumtoz yapon tilining Kansai shevasida saqlanib qolinishining o‘ziga xos sabablari

Kansai shevasida mumtoz yapon tilining saqlanib qolish sabablarini Onishitaku Ichiro hamda Sato Kyojilar quyidagicha asoslaydilar:

Onishitaku Ichiro: 「変化を引き起こす原因となる接触を地理的隣接性に依存した線状的流れにのっとならせている点である。」

Ya’ni:

“Tildagi o‘zgarishning asosiy omili bo‘lmish “kontakt” jarayoni geografik yaqinlikda ham mavjud” deb mumtoz yapon tilining bugungi tilda shevalarda saqlanib qolishini geografik omil bilan asoslaydi.

Bu fikrni yanada aniqroq tavsiflanadigan bo‘lsa, Kansai hududiga kiruvchi Kyoto shahri o‘rta asrlarda, xususan Xeyan, Kamakura davrlarida Qadimgi Yaponiyaning poytaxt shaharlardan biri bo‘lgan. Tarixan ma’lumki, poytaxt shaharlar savdo-sotiq din, ilm-fan, madaniyatning eng rivojlangan o‘chog‘i hisoblanib kelgan. Ilm-fan, madaniyat rivojlangan joyda esa albatta shu joyning tili har bir sohada keng iste’molda bo‘ladi. Bunday shaharlarga Arab xalifaligi davrida islom markazi, ilm-fan, madaniyat o‘chog‘i bo‘lgan Bog‘dod kabi poytaxt shaharlarni misol tariqasida keltirish mumkin. Shu kabi shaharlar tilning keng yoyilishi hamda til mavqeida juda katta ahamiyat kasb etgan. Xeyan, Kamakura davrlarining moddiy-ma’naviy merosi aynan shu davr tili bilan chambarchas bog‘liq. Shu davrlarning poytaxt shahri bo‘lgan Kyoto shahrining ham moddiy-ma’naviy merosi juda boy bo‘lib, mumtoz yapon tilining o‘ziga xos ahamiyatini aynan hozirgi zamonaviy yapon tili shevalarida saqlanib qolishida hattoki, yoshlar tili (若者言葉) da ham bu tilning ta’siri sezilarli darajada ekanligi aniqlanib kelinmoqda. Masalan, Bunga misol qilib, 「いと - ito」 so‘zi aslida mumtoz yapon tiliga xos bo‘lgan so‘z hisoblanib, zamonaviy yapon tilida bu so‘z 「とても - totemo」 so‘ziga to‘g‘ri keladi. Yamaguchi Nakami (2007)

o‘zining ilmiy ishida bu so‘zning yoshlar tomonidan ishlatilayotganini ta’kidlab, quyidagi misolni keltiradi.

(8) 「あのレポート、いと大変だったね。」

Xitoy Gankong universiteti tadqiqodchilari tomonidan 2013-yilda olib borilgan izlanishlar natijasiga ko‘ra, Yamaguchi Nakami ko‘rsatgan misol yoshlar tomonidan internet bloglarida ishlatilayotgani kuzatilgan. 「いと赤い」、「いと明るい」、「いと広い」 kabi ko‘rinishda foydalanilib kelinmoqda. Yamaguchi Nakami tomonidan buning sababini psixologik nuqtai nazardan yondashgan. Ya’ni mumtoz yapon so‘zlari murakkabligi hamda hozirgi kunda kamyobligi sababli yoshlarda bu so‘zlardan foydalanish “maroqlanish” hissini bermoqda deb asoslaydi.

Satou Kyoji esa 「江戸時代以前の中央語として多くの文献に記録された近畿地方のことばが、明治以後は近畿方言として、そのまま残っているのはむしろ当然である」と述べ、『源氏物語』に出てくる

Ya’ni:

“Edo davridan oldin o‘rta asrlar tilida juda ko‘plab adabiy asarlar yozib qoldirilgan Kinki hududi so‘zlari Meiji inqilobidan so‘ng “Kinki dialekti” sifatida saqlanib qolgan” deb o‘z fikrini asoslash uchun o‘rta asrlarda yozib qoldirilgan mumtoz asar “Genjimonogatari” (“Genji shahzodasi haqida qissa”)da uchraydigan quyidagi parcha ni keltiradi:

(9) 「そのよさりなん宮まかでさせ奉り給ひける」 (宿木)

“Tun”, “kecha” ma’nosini beradigan 「ヨサリ」 so‘zi, Kinki hududidan butun Yaponiya hududlari shevalarida uchratish mumkin deb o‘z fikrini asoslab beradi.

Yuqoridagi barcha yonadushuvlarning o‘ziga xos asosli sabablari mavjud. Yamaguchi Nakami tomonidan psixologik nuqtai nazardan yondashuvi, albatta,

bir tomondan to‘g‘ri, ammo lingvistik hodisalarga faqatgina psixologik ta‘sirilar yetarli emas. Asosiy omil bu tildagi “kontakt” jarayonining kengayib borayotgani hisoblanadi. Bu yuqorida Onishitaku Ichiro asoslab o‘tgan geografik yaqinlik ham “kontakt” jarayoni bilan bog‘liq. Bu jarayonni yuzaga keltiruvchi omillardan biri adabiy asarlar, ommaviy axborot vositalari, san‘at (芸能：歌舞伎、能)ning keng rivojlanib, aynan mumtoz yapon tilida yozilgan asarlar bilan bog‘liqligidir.

Edo davridan oldin o‘rta asrlar tili “mumtoz yapon tili”da yozilgan mumtoz asarlarga “Manyoshyu” 『万葉集』¹⁷、 “Genjimonogatari”(“Genji shahzodasi haqida qissa”) 『源氏物語』¹⁸、 “Taketori-monogatari”(“Bambuk kesuvchi chol qissasi”) 『竹取物語』¹⁹、 “Kokinwakashyu” 『古今和歌集』²⁰ kabi asarlar misol bo‘la oladi.

Hida Yoshifumi ham Sato Kyojining fikrini tasdiqlagan holda mumtoz yapon tilining “Kansai shevasi”da saqlanib qolishini quyidagicha asoslaydi:

『方言という卑しい言語の中に、典雅な古典語が発見されたという意外性と、それが古典解釈に役に立つかもしれぬという期待とで、この問題は洋の東西を問わず、古典を有している国々では注目されていた。わが国でも、鎌倉時代以後は中央でも大きな言語変化が起き、『万葉集』や平安時代の古典語を読者がその時代のことばで解釈しながら読み、また、作歌のため古典語を学ばなければならなくなったころから、例えば、『万葉集抄』、定家の『愚秘抄』などに、古語が方言に残るという記述が見え、江戸時代でも荻生徂徠²¹の『南留別志』、本居宣長²²『玉勝間』などにも踏襲されている』

¹⁷ 現存最古の歌集。20巻。仁徳天皇皇后作といわれる歌から淳仁天皇時代の歌（759年）まで、約350年間の長歌・短歌・旋頭歌・仏足石歌体歌・連歌合わせて約4500首。

¹⁸ 平安中期の長編物語。紫式部の作。主人公源氏を中心に宮廷生活を中心として平安前・中期の世相を描かれている。

¹⁹ 平安初期にできた最古の作り物語。1巻。作者未詳。

²⁰ 省略して「古今集」「古今」ともいう。編者は紀貫之、紀友則、壬生忠岑、凡河内躬恒の四人である。905年醍醐天皇の勅命により成立された。

²¹ 江戸中期の儒学者であった。名は双松（なべまつ）である。

²² 江戸中期の国学者。国学四大人の一人。京に上って医学修業のかたわら源氏物語などを研究した。

Xulosa qilib aytganda, Kansai shevasida mumtoz yapon tilining saqlanib qolishining asosiy omillari ikkita: Kyoto shahrining oʻrta asrlarda poytaxt shahar boʻlganligi boʻlsa, ikkinchisi, hozirgi zamonaviy tilning mumtoz yapon tiliga asoslanib shakllantirilganligi hisoblanadi. Hozirgi paytda esa koʻzga koʻrinmas uchinchi omil “kontakt” jarayonining ham taʼsiri sezilmoqda.

3.3. “Kansai shevasi” va “umumxalq tili”ning oʻzaro kontakti natijasida vujudga kelayotgan “Yangi sheva”ning paydo boʻlish sabablari

Kansai shevasida “Yangi sheva”ning vujudga kelish sabablarini asoslashdan oldin, “Yangi sheva”ni vujudga keltirayotgan “kontakt” (接触) jarayonining oʻziga xos mexanizmlarini aniqlash lozim. Bu haqida Takagi Chie (2006) “yangi sheva”ni vujudga kelishini Kansai shevasiga “standart til” (標準語) ning taʼsiri bilan bogʻlaydi. Sanada Shinji esa 1980-yilda birinchi marta “Yangi sheva” tushunchasini yapon tiliga olib kirganida ham uning shakllanish sabablarini “standart til” emas, “umumxalq tili”ning Kansai shevasi bilan munosabatga kirishish orqali izohlaydi.

Takagi Chie tomonidan ishlab chiqilgan mexanizmni rad etadigan yana bir muhim sabab: “standart til”ning rasmiy nutqdagina ishlatilishi rad etadi. Sheva norasmiy til boʻlib, yapon tilida rasmiy til bilan shevaning bir paytda ishlatilishi kuzatilmaydi. Sheva bilan yonma-yon ishlatiladigan “umumxalq tili” (共通語) bilan “kontakt” jarayoni yuzaga keladi desak toʻgʻriroq boʻladi. Shu oʻrinda Takagi ishlab chiqqan “kontakt” jarayonining mexanizmiga oʻzgarish kiritiladi, yaʼni “standart til” emas, balki “umumxalq tili” va Kansai shevasining oʻzaro munosabatga kirishishi natijasida “Yangi sheva” vujudga keladi.

Onishitaku Ichiro “kontakt” jarayonining vujudga kelish sabablarini insonlar orasidagi aloqaning turli xilligi bilan izohlaydi va quyidagi omillarni keltirib oʻtadi.

1. Iqtisodiy faoliyat (經濟活動) .

2. Inson resurslarining harakati (人的資源の異動) .
3. Ta'lim (教育活動) .
4. Urbanizatsiya jarayoni (大都市と後背地) .
5. Turmush qurish (通婚圏) .
6. Din va sayohat (宗教活動と旅) .
7. San'at (芸能) .

Yuqoridagi omillar hozirgi zamonaviy Yaponiya hayotida eng jadal rivojlanib borayotgan yo'nalishlar hisoblanadi. Rivojlanish bo'lgan joyda o'zgarish bo'ladi. Til esa insonlar uchun aloqa vositasi hisoblanadi. Aynan shuning uchun ham yuqoridagi omillar lingvistik "kontakt" jarayonining vujudga kelishida eng katta sabab bo'lmoqda.

Bugungi hayotimizni texnika, texnologiyasiz tasavvur etib bo'lmaydi. Hayotimizning har bir jabhasida ilg'or texnologiyalarni chuqur o'rnashib olgani bugungi hayotiy o'zgarishning o'zi guvohlik beradi. Yuqoridagi omillarga texnikaviy omillar, jumladan internetni ham kirib borayotgani ham sabab bo'lib, sotsiolingvistikada yangi yo'nalish ochmoqda.

Uchinchi bob yuzasidan xulosalar

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yapon tilida kontakt jarayoni orqali paydo bo'layotgan "yangi sheva"ni shakllantiruvchi mexanizmlar bu "umumxalq tili" va "Kansai sheva" ekanligi aniqlandi. Kontakt jarayonining vujudga keltirayotgan bir qancha omillar misol tariqasida keltirildi va ularning barchasi inson omilining ta'siri asosida paydo bo'lishi aniqlandi.

XULOSA

Mazkur bitiruv malakaviy ishida olib borilgan yapon tilidagi qo'shma fe'llarning semantik va grammatik tahlili natijalariga asoslangan holda quyidagi xulosalar chiqariladi:

1. "Dialekt" tushunchasi keng ma'noda, "sheva" tushunchasi esa tor ma'noda qo'llanilishiga ko'ra ular orasida farq mavjudligi aniqlandi.
2. "Dialekt" yoki "sheva" tushunchalari muayyan tilning ichki hodisasi hisoblanadi. Shuning uchun ham shu tilga xos bo'lgan grammatik, fonetik, leksik xususiyatlarining o'xshash jihatlari bo'ladi. Lekin dialekt yoki shevalar shu tildagi leksik, grammatik, fonetik xususiyatlarning o'zgargan shaklini aks ettirishi aniqlandi.
3. Yapon tilida uch xil til shakllari "standart til" 「標準語」, "umumiy til" 「共通語」 hamda dialekt va shevalar (方言) mavjud ekan. Adabiy til vazifasidagi "standart til" va unga yaqin bo'lgan "umumiy til"ning dialekt va shevalardan farqi ham, o'xshash jihatlari ham leksik, grammatik, fonetik jihatdan qiqacha tahlil qilindi va ular orasidagi farqli va bog'liq jihatlari Kansai shevasi misolida tahlil qilinib aniqlandi.
4. Yapon tilshunosligida sheva yoki dialektlarni guruhlashda hali tugal fikrga kelinmaganligi hamda hozirgi kunda bu mavzuda turli xil munozaralar davom etib kelayotganligi kuzatildi.
5. "Dialekt" yoki "sheva"lar ma'lum bir hududdagi alohida shakllangan so'zlar bo'lib, "adabiy til" va "umumxalq tili" bilan farqlanib turuvchi til shakli hisoblanadi. Dialekt yoki shevalarning "umumxalq tili" 「共通語」 va "standart til" 「標準語」 dan farqli jihatlari grammatik, fonetik, leksik jihatdan farqlanishi "Kansai dialekti" misolida tahlil qilinib aniqlandi.

6. Yapon tilida shevalarni guruhlash 「方言区画論-“hougenkukakuron”」 deb nomlanib, yapon tili dialektologiyasida bu alohida bo‘lim saifatida o‘rganiladi. Yapon tili shevalarini guruhlashda bir qancha nazariyalar mavjud. Bir necha nazariyalar qiyosiy tahlil etildi va nazariyalardagi ba’zi bir kamchiliklar aniqlandi. Tahlil natijalariga tayangan holda BMI uchun Tsudzuku Tsuneoning nazariyasi asos qilib olindi.
7. Kansai shevasida Tanaka Tetsuya nazarda tutmagan yana bir qator xususiyatlar mavjudligi ko‘rildi. Jumladan, fonetik xususiyatlardan biri bo‘lmish ガ行鼻音 - “ga” qator burun tovushlarining mavjud emasligi, 「せ-se」 va 「ぜ-ze」 tovushlari Kansai shevasida 「しえ-shye」 hamda 「じえ-jye」 tarzida talaffuz etilishi, ワ行五段動詞の連用形 ya’ni “wa” qator fe’llarining sifatdosh shakli 「ウ音便」 - “u” unlisiga aylanishi, fe’lning inkor shaklini yasovchi 「へん - hen」 qo‘shimchasi qo‘shilganda so‘zlarda assimilyatsiya hodisasi yuz berishi kabi xususiyatlarni ham ko‘rish mumkinligi ham ayon bo‘ldi.
8. Mumtoz yapon tili o‘rta asrlar (Xeyan davri) tili bo‘lib, hozirgi zamonaviy yapon tilidan fonetik, grammatik, morfologik (so‘zlarning tuzilishi) jihatidan farqlanishi “Takatori-monogatari” (“Bambuk kesuvchi chol qissasi”) asari misolida tahlil qilinib aniqlandi.
9. “Kansai shevasi” mumtoz yapon tilining juda ko‘p xususiyatlarini o‘zida jamlagani Kansai shevasida yozilgan Tanabe Seikoning “Farishta qalbli ayol” asari misolida tahlil etilishi natijasida, Kansai shevasi mumtoz yapon tilining bir qator o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettirganligi uchun ham “an’anaviy sheva” degan nomni olgan deb xulosa chiqarish mumkin.
10. Kansai shevasida mumtoz yapon tilining saqlanib qolishining asosiy omillari ikkita bo‘lib: birinchisi geografik jihatdan qaralganda Kinki hududiga qarashli Kyoto shahrining o‘rta asrlarda poytaxt shahar

bo‘lganligi bo‘lsa, ikkinchisi, hozirgi kungacha saqlanib qolgan mumtoz asarlarni o‘qish va o‘rganishga qiziqishning kuchliligi kabi sabablar kuzatildi. Hozirgi paytda esa ko‘zga ko‘rinmas uchinchi omil “kontakt” jarayonining ham tilga ta’siri kuzatilmoqda.

11.Yapon tilida kontakt jarayoni orqali paydo bo‘layotgan “Yangi sheva”ni shakllantiruvchi mexanizmlar bu “umumxalq tili” va “Kansai sheva” ekanligi aniqlandi. Kontakt jarayonining vujudga keltirayotgan bir qancha omillar misol tariqasida keltirildi va ularning barchasi inson omilining ta’siri asosida paydo bo‘lishi ravshan bo‘ldi.

“Yangi sheva”ning xususiyatlarini umulashtirib, quyidagi xulosalarga kelindi:

- a) yapon tilida “kontakt” jarayoni natijasida sheva va “umumxalq tili”ning aralash shakli – “Yangi sheva” shaklida vujudga kelmoqda;
- b) “yangi sheva” o‘zida ham adabiy tilga yaqin bo‘lgan “umumxalq tili” xususiyatlarini, ham sheva xususiyatlarini jamlaydi;
- c) “yangi sheva”ni vujudga keltiruvchi omili sifatida “yoshlar” ko‘rsatilayotganligi ayon bo‘ldi. Aynan yoshlar nutqida so‘z o‘zgarishlari jadal bormoqda degan xulosaga kelish mumkin;
- d) yapon tilidagi hozirgi “Yangi sheva” Kansai hududida shakllanmoqda. Shu sababli Kansai shevasining deyarli barcha xususiyatlari “Yangi sheva”da mujassam degan xulosani berish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent: Ma'naviyat., 2008.
2. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin 2-kitob. T.: O'zbekiston, 1998.
3. Karimov.I.A. Inson baxt uchun tug'iladi/ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hikmatli so'zlaridan. - T.: O'zbekiston, 2001.

O'zbek tilidagi adabiyotlar:

4. Reshetov V.V., Shoabdurahmonov Sh. O'zbek dialektologiyasi. - Toshkent, 1978.
5. Shoabdurahmonov Sh. O'zbek adabiy tili va o'zbek xalq shevalari. Toshkent, 1962.
6. TO'ychiyev B., Xasanov B. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.

Rus tilidagi adabiyotlar:

7. Гумбольдт В.фон. Язык и философия культуры. - М.: Наука, 1985.
8. Головнин И.В. Грамматика современного японского языка. - Москва, изд-во Московского Университета, 1986.
9. Мищерский Н.А. Русская диалектология. М.: Высшая школа, 1972.
10. Сугано Рейко. Диалектология японского языка. Ташкент.: ТашГИВ, 2009.
11. Халмурзаева Н.Т. Языковая ситуация Японии (учебное пособие). Ташкент, 2009.

Yapon tilidagi adabiyotlar:

12. 朝倉邦造(2011・2012)「日本語文章・文体・表現辞典」株式会社朝倉書店。ISBN 978-4-254-51037-9C3581
13. 稲賀敬二・竹盛天雄・森野繁夫(1992)「カラー版 国語便覧」教育図書出版 第一学習社。ISBN4-8040-2094-2
14. 井上史雄・鏝水兼貴『辞典 新しい日本語』東洋書林 ISBN 4887215320
15. 大西拓一郎(2008)「現代方言の世界」朝倉書店
16. 小村隆・篠崎晃一(2010)『ガイドブック方言研究』ひつじ書房
17. 佐藤喜代治(1973)「新版国語学要説」株式会社朝倉書店
18. 真田信治(2008)『社会言語学の展望』くろしお出版
19. 清水文雄・松村明・真下三郎(昭和 59 年)「古典文法」教育図書出版 第一学習者
20. 飛田良文(2007)「日本語学研究事典」明治書院株式会社
21. 古瀬順一(2001)「国語学概説」双文社出版
22. 町田健編・中井精一(2005)『社会言語学のしくみ』研究者
23. 松本功(2003・2010)「ガイドブック方言研究」株式会社ひつじ書房
ISBN 978-4-8-89476-183-4C1081
24. 南雅彦(2013)「方言調査 8」サンフランシスコ州立大学・国立国語研究所

用例の出典：

25. 田辺聖子(2009)「ほとけの心は妻ごころ」角川書店
26. 片桐洋一・福井貞助・高橋正治・清水好子(1994)「竹取物語・伊勢物語・大和物語・平中物語」図書印刷株式会社 ISBN4-09-658012-0

Lug‘atlar:

27. O‘zbek tilining imlo lug‘ati. Toshkent.: O‘qituvchi, 1995.
28. Серия словарей Сансейдо. Русско-японский словарь под редакцией С.Икета, пятое издание, Токио, изд-во «Сансейдо», 2005.
29. Японско-русский словарь И.Сатоу, Токио, изд-во «Коданся», 1992.

Internet saytlari:

30. www.ziyonet.uz
31. www.edu.uz
32. www.gov.uz
33. <http://ir.library.osaka-u.ac.jp/dspace/> 2006 Osaka University Knowledge Archive: OUKA
34. <http://kansaiben.web.fc2.com/jisho.html> 東北大学学友会文化系準加盟団体「関西弁の集い」関西弁辞書 (ver.1.3)

Ilovalar

Ilova 1: Kansai shevasidagi ayrim soʻzlarning umumxalq tili bilan qiyosiy tahlili²³

	関西弁	共通語訳
1	あかん	「だめ」を意味する
2	うち	一人称「私」。通常女性の言葉。もちろん、標準語と同意の使用例もある。
3	えげつない	人性味、同情心に欠けている、あくどい。物事が非常に顕著（否定的な意味で）な時にも用いる。
4	おる	いる。何か物がそこに存在している。
5	食いさし	食いかげ。つまり、食べ残しの状態。漢字では「食い止し」。
6	さら	新品。まっさらの品物。発展形→さらっぴん。
7	しける	気持ち、雰囲気等がなんとなくぱっとしない、急に冷たいときに使う。
8	しばく	1. 殴る。2. お茶をする時に使う。例：今からお茶しばこうや。（＝今からお茶しませんか）。
9	自分	目の前にいる人に対して「あなた」の代わりに用いる。標準語と同意のときもある。
10	しょうみ	「実際は」などを意味する。何か発言の前に

²³ 東北大学学友会文化系準加盟団体「関西弁の集い」関西弁辞書（ver.1.3）
<http://kansaiben.web.fc2.com/jisho.html>

		言うことが多い。英語では「in fact」
11	ちゃう	「違う」の意味。関西人が文章中で「違う」と発言することが少ない。
12	どないしよう	「どうしよう」。語尾は「どないしょ」のなどのように柔軟に用途に合わせて変化する。
13	なおす	修理する、元の状態に復元する。標準語と同意の使用法もある。つまり、「片付ける」
14	何べん	「何回」の意味。
15	なんぼ	物の大きさ、値段などスカラーの要素の規模を尋ねる時に使う。「いくら」
16	ぬくい	「あたたかい」の意味。
17	～ねん	語尾に使用される。「～だよ」のような意味合いを持つ。前にくる言葉によって「～やねん」のような形に変化する。
18	～へん	語尾に使用される。「～ない」のような否定的な意味。前の語は未然形。「へ」が省略されて「ん」だけ使われることもある。
19	ほっといて	「捨てといて」の意味。標準語の意味でも用いることもある。前後の状況により意味を理解する必要がある。
20	ほんま	「本当」の意味。
21	やかましい	「うるさい」の意味。標準語でも用いられるが、関西人の使用頻度は日本人平均よりは高い。
22	やから	「だから」の意味。文章中で用いられる。

23	～やろ	「～でしょ」の意味。まず関西で「でしょ」は使われない。
24	～やん	「じゃん」の意味。「じゃん」を使うといちいち突っ込みを入れる関西人がいるので注意。
25	～ん	「～の」の意味。使用例としては「そうなん→そうなの」の「の」のような形。関西弁は語尾に「ん」が多く用いられる。

Novo 2: Tanabe Seikoning “Farishta qalbli ayol” nomli asarida ishlatilgan Kansai shevasidagi soʻzlarning qiyosiy tahlili.


田辺聖子「ほとけの心は妻ごころ」における関西弁の分析調査		
1	しかし、それは夫の思い通りにならぬことが多い。(6)	共通語の否定表現の「～ない」の意味
2	人はみんな喜んだのだけれど(ウチも売上げが上がった)いいことは長くつづかず、 <u>やがて</u> 駅の南側に、大きなスーパーマーケットができた。	「ず」共通語でも否定表現
3	私鉄の駅からは、さらにそこを基点にする支線が <u>のびており</u> 、その沿線も、どんどん住宅街に変貌しつつある。(6)	「のびており」=「のびていて」古典残存
4	ごころはん、ごころはん(7)	ごころさま、こぐらさま
5	お、これ、これ、これでええねん。(9)	これでいいじゃない
6	結構な身分や	結構な身分だ
7	まあ結婚したらこんなもんも買われへん、それ思たら阿保(あほ)らしていて、結婚もできませんわ。当分、ここに居らしてもらお。ここに居ったら、安うつくからな。(12)	形容詞のウ音便
8	同じことなら、愛妻やいとし子をうつしたらどうやのん。他の人の顔や。	いとし 古語の語彙 形容詞
9	いや、そんなもんよろし、それは女子供のする仕事、いうたら何ですが、芸術写真をとるんですからなあ、僕のは素人と違う(12)	よろし古語の形容詞 いうのウ音便
10	これをせえ!	命令形
11	いや、結構でおます	古語の動詞おはす です・いらっしゃる
12	何や、まだいてんのんか	いるのですか
13	足が、いうことをきかんようになって	へんの省略 古語の打消しヌガン
14	ああ、ええ匂い	いい匂い
15	なァ、そやろ?お母さんのいうこと、間違うてエへんやろ?(22)	そうだろう。間違っていないだろう。
16	はい、いろいろ大きに	いろいろありがとうございます
17	しかし結果はおそいやないか、その途中がどないでも、結果をみなさい、結果を(26)	
18	何やと! 怒ったらあかんのか(26)	いけないのか
19	そうやないの	そうでないの
20	誰も聞いてエへん	否定へん
21	前以ていわんかいというたら	いいなさいの命令
22	仕方がないからやめてもろた	
23	「ねえ……」と話しかけたら、すぐ、ふつうの声が出るのだ。夫はそれを待っているのだ。しかし私には、あほらしくていえない。	あほらしい は ばかばかし


24	ちょっと寒いさかい、そっちへいってもええか	からの順接接続詞
25	元来、男は女を可愛がり、女は子を可愛がる。これが昔からの真理だす。この反射のことはウソだす。つまり、女が男を大事に愛するとか、子が親を思うとかいうのんは、これはニセ、マヤカシ、人のみちからはなれとることだす。そこには偽善がおきますよな。	ですがだす。 京都では(だす)ではなく(どす)になる。
26	もう長うない	
27	平均年齢より下やったら、若死にや	共通語の断定表現の「～だ」
28	あの婆さん、なんぼやった (38)	何歳だった？
29	何をいうか、五十まで生きりゃ、めっけものや	生きれば
30	あらまあ! ほんと!	
31	誰がウソいうねん。ひや汗が出ているウ	いうのか。
32	とうとう、殺してしまうのんちやうか、もっと真剣に考えてくれや	違いますか。
33	どうせ、食当たり、なんていうのにきまつてるよ、あのやぶ医者め	
34	お先へ	へ 古語の助詞
35	何も弱い	
36	明日休まんとあかんかもしれん (57)	打消し いけない 語彙 あかん
37	これでも見てれば食欲がわくかも知れへん	打消し
38	どうもいかんようだ。酒でも飲んだら、すこしはすすむか	いかん いけない駄目の意味
39	どうもいかん	
40	家の中で一人でも泣きごとを並べれば、まわりがたまらんのや	打消し ぬ がん になっている。
41	君は君、我は我なり、されど仲よき	古語
42	いやアねえ、しぶちん、いうことやないの	
43	そういう無駄な出費はカンコマのするもんちやう	否定疑問
44	買うたるよって、安いとこで一丁たのむ、これはケチやないやろ、みてみい (88)	買ってあげるから 見るの古語の活用形
45	そうですか、どうぞ、ええのと替えとくのはれ。	いいのと替えてください。
46	つまり、ものを大事に使わんならん。	使わなければならない
47	私はさもあらん、と熱心にうなづいた。(102)	意思を表す古語の助動詞 む
48	いんや、一杯のんでいきなはらんか (105)	
49	そうか、それでどっかで会った気ィしてん (110)	古語 会うの音便
50	部長にたのまれたんや、いや、いわれへん (113)	打消し 断定
51	家もいらなきや妻子もいらぬ それが男の道しゃやら そうはいうてもやっぱり欲しい	打消し
52	ほんまかいな	本当かな

53	あの子にもええ嫁はん見つけて、こっちで身の立つようにしてやろう、思ってます。よう働いてマジメで、腕の良え子ですが、どうもあきまへん	ウ音便 おもうて
54	嫁はんの来てがおまへんにや	おまへん おはす・ありの古語の尊敬語 「いらっしやらない」

Ilova 4: Dialekt va shevalarni guruhlash yaratilgan bo'yicha ayrim nazariyalar:

Tojyo Misao (1927)






ナヤシ=長野・山梨・静岡


ギア=岐阜・愛知

Tojyo Misao (1954)


九州方言



西部方言



東部方言



Kindaichi Haruhiko (1955)

